

SHAHARDA PIYODALAR MUHITLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOSI

Madjidova Nigina Izzatulla qizi

Toshkent Arxitektura va Qurilish magistratura bosqichi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada barqaror va qulay shahar muhitini yaratish va piyodalar muhitini shakllantirish muammolari bilan bog`liq masalalar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *shahar atrofi, piyodalar muhiti, ko`cha kesib o`tiladigan maydon, shahar, shaharlарaro muhiti.*

Bugungi kunga kelib zamonaviy shaharning asosiy muammolaridan biri odamlar uchun barqaror va qulay muhitni shakllantirishdir. O`tgan yillar davomida shahar transporti harakatini intensivligi oshdi va piyodalarning harakatlanishi ancha qiyinlashdi.

Ko`cha transporti va piyodalar muhitlari – shahar tuzulishining yaxlit o`zaro bog`langan ajralmas qismidir. Dam olish joylari (bog`lar, maydonlar) dan farqli ravishda ko`chalarga kamroq e`tibor beriladi vaholanki, ular shahar jamoat joylarini yaratishda, turistik va piyodalar yo`llarini shakllantirishda katta ro`l o`ynaydi.

Piyodalarning o`tish yo`laklari shahar ko`chalari qiyofasini shakllantirishning ajralmas qismi bo`lib, jozibador muhit yaratishga hizmat qiladi. O`tish yo`lagi, xiyobon va parklar kabi muhiti alohida obyekt emas, uni har kuni turli sabablarga ko`ra inson oqimlari tashkil qiladi.

Shahar sohil boyлари, bulvarlar va piyodalar ko`chalari yaxshi o`ylangan landshaft va me`moriy dizayn yaratishga muhtoj, ularni to`g`ri zonalashtirish va shakllantirilishi shaharning bitta yaxlit jozibador yashil tarmog` idir.

Shu hududda turli yo`l foydalanuvchilarining (piyodalar, velosipedchilar va avtomobilchilar) ko`pligi “o`tish hududlari” ning o`ziga xos xususiyatidir, shuning uchun piyodalar va velosiped yo`llari, do`konlar va dam olish joylarini to`g`ri bog`lash muhim ahamiyatga ega. Dam olish va piyodalarga xizmat ko`rsatish joylarining landshaftini tashkil qilish vositalari bu inson uchun jozibali muhitni yaratadigan, unga o`tish xizmatini taklif etadigan va tranzit joylaridan ajratilgan ko`cha joylarida muloqot qilish imkoniyatini beruvchi atrof-muhitning tarkibiy qismlaridir.

Jahon tajribasini tahlil qilib, piyodalar joylarini shakllantirishning bir necha usullarini ajratish mumkin.

- ❖ Aloqa zonalari(piyodalar ko`chalari, maydonlar, ko`priklar, bulvarlar) sifatida piyodalar joylarini yaratish;
- ❖ Ko`kalamzorlashtirish va ochiq yashil maydonlar (bog`lar, xiyobonlar, sohil bo`ylari) ni shakllantirish;
- ❖ Tarixiy rivojlangan transport maydonlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish.

Ayni paytda arxitektura va shaharsozlik amaliyotida piyodalar muhitlarini yaratishda ikki xil loyiha faoliyati mavjud.

1. Shaharning mavjud piyodalar muhitlarini rekonstruktsiya qilish

(to`liq va qisman)

2. Yangi tuman va majmualar qurilishida piyodalar muhitlarini shakllantirish va rivojlanirish.

Qulay shahar va ko`cha muhitlarini shakllantirish uchun quyidagilarga e`tibor berish lozim:

- ❖ Hudud muhitini zonalashtirish; piyodalar va transport oqimlarini ajratish;
- ❖ Tovarlarni va do`konlarga mahsulotlarni tushirish, to`xtash joylari va dam olish joylarini shakllantirish.
- ❖ Kichik me`moriy shakllarni ko`kalamzor hududlarda joylashtirish.

Bu piyodalar muhitining nafaqat rejalashtirish tuzilishiga e`tibor berish, balki, ko`chaning estetik ko`rinishida ham muhim ahamiyatga egadir (fasadni bezash materiallari, yo`lak yoritish kichik me`moriy shakllari).

Piyodalar zonalarini tarkibida ko`kalamzorlashtirishning joriy etilishi muhitga jozibadorlik bag`ishlaydi, organik tabiiy shahar muhitini yaratishga imkon beradi, muhitning betakrorligi esa piyodalar tomonidan qabul qilinadigon joyning o`ziga xos qiyofasini yaratishga yordam beradi.

Biz ko`p qaytaradigan ibora bor shahar mashinalari uchun emas, balki odamlar uchun yaratilgan, shuning uchun muhimi binolar emas, balki ular orasidagi muhitlardir. Transport va piyodalar oqimlarini farqlash, arxitektura va landscape elementlaridan foydalanish, muayyan dam olish uchun joylar yaratish, tabiiy va sun`iy materiallar yordamida ko`chalarning jozibali va individual qiyofasini shakllantirish muhimdir.

Yana shuni ta`kidlash lozimki, ayni damda bizning yurtda yo`llar yanada kengaytirilib avtomobillar shahriga aylangan bir davrda dunyoning rivojlangan davlatlari sog`lom turmush tarzini aholining doimiy hayot tarziga yanada kengroq singdirish maqsadida magistral yo`llarni qisqartirib, trotuar va yashil zonalarga keng e`tibor qaratmoqda va bu orqali ekologiyaga avtomobillardan tarqaladigan zaharli havo oqimlarini, yo`llardagi doimiy to`xtovsiz tirbandliklarni kamaytirishni maqsad qilgan.

Odamzot tabiatdan biroz dangasaroq yartilaganini hech birimizga sir emas, shuning uchun har qadamdagи keraksiz to`siflar yohud odamni charchatadigan notejis yo`laklar ko`nglimizni xira qilishi aniq, bunga misol qilib Toshkent shahri, Yunusobod tumanida joylashgan Qulogtepa ko`chasini olishimiz mumkin. Trotuar holati talabga javob bermaydi va ta`mir talab holatga kelib qolgan. Yo`lak tekislanib, dam olish uchun o`rindiqlar, axlat qutilari, yo`lak yoritish moslamalari qo`yilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Yo`laklar va jamoat joylarini qayta ta`mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirayotganda aholining har bir qatlama vakilini inobatga olish, ularning hayot tarzini yengillashtirishga hizmat qiladi. Bizning xalq-bolajon xalq, shuning uchun ham tug`ulish soni ko`p, bu o`z navbatida og`iroyoqlar uchun o`ziga xos zamonaviy dizaynga ega, ergonomikaga asoslangan o`rindiqlarga ehtiyojni oshiradi. Bunday o`rindiqlar yaratilishi ko`chalarimiz ko`rkiga ko`rk qo`shar, o`zgacha estetik zavq bagishlagan bo`lar edi.

Yashil hududlarga nazar soladigan bo`lsak, yaqin o`tmishda ham nafaqat Toshkent balkim butun O`zbekiston maqtansa arzigulik ko`kalamzor zonalarga ega edi ammo so`nggi

paytlarda ko`p daraxtlarning kesilishi bunday yashil hududlarni kamayib ketishi va soya salqin hududlarga bo`lgan extiyojni keskin oshirib yubordi.

Archalar yaxshi lekin, soya-salqinlik berishda chinor va tollarga yetmaydi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkunki, shahar ko`rkini asosan ko`chalar tashkil etadi, ularni tashkil etish yohud rekonstrusiya qilishda asosan 3 tamoyil – foydalilik, mustahkamlik va go`zallik tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nefyodov V.A. shahar landshaft dizayni: o`quv qo`llanma sankt-peterburg.
2. Shaftoe, H., 2008. Cheerful urban spaces: creating efficient public spaces. Earthscan. London.
3. Woolley, H., 2003. URBAN OPEN SPACES. Spon Press. New York.
4. Williams, Daniel E., 2007. Sustainable design: ecology, architecture and planning. John Wiley & Sons, Inc. New York
5. <https://www.gazeta.uz/ru/2018/02/14/public-spaces/#>